

Kat-qal'ada Xorazm Ma'mun akademiyasi arxeologlari ekspeditsiyasi davom etmoqda

Xorazm Ma'mun akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limining arxeolog olimlari Kat-qal'a yodgorligining g'arbiy qismida navbatdagi izlanishlarni davom ettirdilar. Ayni paytdagi izlanishlar yodgorlikning markazi va g'arbiy qismida olib borildi.



Izlanishlar natijasida yirik monolitli platforma qoldiqlari o'rganilmoqda. Platforma asosan, 40x40x10, 41x41x10 sm hajmdagi xom g'ishtlardan tiklangan bo'lib, uning qoldiqlari 28x14 m maydonda kuzatiladi. Bu yerdan asosan, milodiy III-IV asrlarga oid sopol qoldiqlari aniqlanmoqda. Qal'a markazidagi shurfda ilk antik (miloddan avvalgi IV-III asrlar) davrga tegishli qatlamlar bilan birga so'nggi antik davrga oid (milodiy II-IV asrlar) turar-joylar qoldiqlari aniqlanib o'rganilmoqda. Ilk antik davr qatlamlarida sopol buyumlar qoldiqlari, shuningdek, shu davrga oid sopol idishlar orasida miloddan avvalgi V asrga oid topilmalardan muhimi manjetsimon gardishli arxaik xumlar qo'lga kiritildi. Ushbu topilmalar shaharning barpo etilishi bilan bog'liq ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki bunday idishlar turlari miloddan avvalgi VII-V asrlarda nafaqat Xorazm, balki butun O'rta Osiyodagi tarixiy hududlarda keng tarqalgan.

Topilmalar orasida sopol haykalcha o'zining nafis ishlanganligi bilan ajralib turadi. Sopol haykalcha tasviri, undagi qiyofa ko'rinishi aniq tasvirlangan. Bunday tipdagi haykalchalar Xorazm yodgorliklarining ilk antik davr qatlamlarida ko'plab uchraydi.



Shunday qilib, mavjud materiallarning tahlili platformani milodiy II-IV asrlarga talluqli degan fikrni ilgari surishga imkon beradi va bu yodgorlikda antik davrning so'nggi bosqichlari va ehtimol, ilk o'rta asrlarning boshlarida ham hayot tarzi faol davom etganligini ko'rsatishga imkon beradi (milodiy IV asr - V asr boshlari). Platformaning to'liq rejalashtirilishi va vazifasi hali aniq hal etilmagan. Ehtimol, platforma diniy marosimlar o'tkazish bilan bog'liq xususiyatga ega bo'lgan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga so'nggi arxaik davr sopollarining topilishi bu yerda antik davrgachayoq manzilgoh mavjud bo'lganligi haqida yangicha qarashni ilgari surishga imkon beradi.





Olib borilayotgan tadqiqotlar yodgorlik tarixiga doir yangi ma'lumotlarni taqdim qilmoqda. Mazkur yodgorlikda izlanishlarni keyingi yillarda ham davom ettirilish rejalashtirilmoqda!